

MIR SAYYID SHARIF JURJONIYNING USTOZLARI

Jamshidova Madina

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,
Islomshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya

Mazkur maqolada XIV–XV asrlarda yashab, islom ilmlari, falsafa va mantiq sohalarida yuksak salohiyat ko'rsatgan buyuk alloma Sayyid Sharif Jurjoni (740/1340–816/1413)ning hayoti, ilmiy faoliyati va u zotning ustozlari haqida bo'lib, Muborak Shoh va Akmaliddin Bobartiy bilan bo'lgan aloqalari keng yoritilgan. Shuningdek, maqolada Imom Jurjoniylarning Misrdagi tahsili, ustozlari bilan ilmiy munozaralari, esda qolarli voqealari, Samarqandga qaytgach Shoh Shujo tomonidan “Dorush shifo” madrasasiga mudarris etib tayinlangani va tasavvufga bo'lgan qiziqishi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, u naqshbandiylik tariqatining namoyandalari Xoja Alouddin Attor va Mavloni Nizomiddin Homush bilan ilmiy va ruhiy munosabatlarda bo'lgani alohida ta'kidlangan. Maqola tarixiy-bibliografik va biografik yondashuv asosida yozilgan bo'lib, o'rta asr musulmon olimlari ilmiy merosini o'rganish uchun muhim manba sifatida xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Muborakshoh, Qutb ad-Din ar-Roziy, mantiq, falsafa, “Dorush Shifo”, Jurjoni.

Temuriylar davrida Samarqandda yashab, ijod qilgan va butun dunyoga dog'i ketgan alloma Sayyid Sharif Jurjoni. Bu zotning to'liq ismi Imom Fozil Alloma Sayyid Sharif Abdulhasan Ali ibn Muhammad ibn Ali Jurjoni Husayniy[1:52]. Mir Sayyid Sharif Jurjoni 24-Fevral kuni 740/1340 yilda Astrobod (Jurjon) yaqinidagi Togu (Toju) qishlog'ida tavallud topgan[9]. Imom Jurjoni Rosululloh sollallohu alayhi vasallamning sulolalaridan bo'lib, u kishi bilan Muhammad sollallohu alayhi vasallamning oralarida o'n uchta ota bordir[1:52]. Yoshlik davridan boshlab barcha fanlar qatori falsafa, mantiq va til sohalariga nihoyatda qiziqqan. As-Saxoviy (831-932/1427-1497)ning aytishicha ash-Sharif al-Jurjoni ilk ta'limini qishlog'ida olgan[4:13]. Ba'zi manbalarda u yoshlik chog'ida Abu Ya'qub as-Sakkakiyning(vaf.626/1229) “Miftah al-Ulum” nomli grammatikaga oid asarini shorihi an-Nur at-Tavusiylarning asarga yozgan sharhini o'qigan[7:15]. Keyinchalik 762 sanada o'sha davrning mashhur allomalaridan bo'lgan faylasuf Qutb ad-Din ar-Roziy Taxtoniy (694-766/1295-1365) hazratlaridan “Sharhush-Shamsiyya” asarini o'qish uchun Hirotga boradi. Garchi ba'zi manbalarda Taxtoniy Jurjoniya bir yoshga borib qolgani uchun dars bermaganligi ta'kidlansa-da, “Ravdatul-jannat” asari muallifi al-Isfahoni rivoyat qilishiga ko'ra, Jurjoni Taxtoniydan bir muddat tahsil olganligi qayd

etilgan[7:16]. Qutb ad-Din ar-Roziy Taxtoniyning ismi Mahmud ibn Muhammad ar-Roziy Abu Abdulloh, Qutb al-Din, al-Qutb at-Taxtoniy nomi bilan ham mashhur bo'lib, "Taxtoniy" nisbasi uni boshqa Qutb al-Faqoniydan ajratib turadigan laqabdir. Imom Taxtoniy 694 yilda Ray shahrida tavallud topgan. U zot faylasuf, mantiqshunos, ilohiyot olimi va fasohat ilmi bilimdoni hisoblanadi. Imom Taxtoniy Damashqqa 763/1362 yilda ilm olish va berish uchun kelgan. U zot buyuk olim Adudiddin al-Idji (vaf.756/1355) hazratlaridan tahsil olgan. Alloma "al-Kashshof"ga mashhur sharhlar, mantiq bo'yicha al-Urmaviyning "al-Mataliy" sharhini, al-Kotibiyning mantiq bo'yicha "ar-Risola ash-Shamsiyya" asariga sharh yozgan. Hijriy 763 yilda Toj ad-Din Subki (727-771/1327-1370) hazratlari Qutb ad-Din Hazratlari Shomga kelib ilmiy olimlar bilan o'tkazgan ilmiy munozara haqida eslab, shunday deydi: "Biz u bilan munozara qildik va uni mantiq va falsafada imom, tafsir va nahv ilmlarida mutaxassis va aql-zakovatda zohir bo'lgan shaxs ekaniga guvoh bo'ldik", dedi[7:36]. Imom Taxtoniy umrining so'ngi 3yilini Damashqdagi "Zohiriy" madrasasida o'tkazgan va 766 hijriy / 1365 yilda vafot etgan[4:14]. Taxtoniy o'zining keksayib qolganini aytib Imom Jurjoniya, Misrdagi mantiq ilmida ko'zga ko'ringan shogirdi Muborak Shoh oldiga borishni maslahat beradi va Muborak Shohga maktub ham yozadi. Lekin Sayyid Sharif Jurjoni 1368-yilgacha Hirotida bo'lgan.

Keyinchalik Imom Taxtoniyning maslahatiga binoan Imom Jurjoni ilm ilinjida Misrga yo'l oladi. U zot bu safari davomida Onado'li diyorida o'tadi. Osha yerda o'zi shuhrat qozongan mashhur olim shayh Jamoliddin Oqsaroydan dars olishni niyat qiladi va Anadoluga (Turkiya) Oqsaroyga keladi, Shayhni vafotini eshitgach u yerda tanishgan Oqsaroiyning shogirdi, mashhur faylasuf va mantiqshunos Muhammad Mullo Fanoriy(vaf. **834/1430**) bilan uchrashadi. Ular bir-birlari bilan do'st tutinib, birgalikda 1370-yilda Misrga jo'nashadi[1:53]. Sayyid Sharif Jurjoni Misrda o'n yil davomida katta olmlardan dars olgan, ulardan mashhur mantiqshunos Muborak Shoh va Akmaliddin al-Bobartiylardir. Alloma Qutb ad-Din ar-Roziydan keyin, Imom Jurjoni ilmni Taxtoniyning shogirdi Imom Muborak Shohdan o'rgandi. U zotning to'liq ismi Mirax Shamsiddin Muhammad ibn Mubarak Shah al-Buxoriydir. Professor Dr. Bekir Karlig uning o'limi 784 (milodiy 1382) yildan keyin sodir bo'lganligini ta'kidlaydi[5]. Uning "Mirax" taxallusi bilan mashhur bo'lishi, uning ashrof (ziyoli va obro'li) oilasiga mansubligi va "Buxoriy" nisbasi esa uning Buxorodan ekanini bildiradi. Shuningdek, u uzoq muddat Hirotida yashagan bo'lib, koproq mantiq ilmi bilan shugullangan. Muborak Shoh o'z davrining mashhur mantiq va kalom olimi Qutb ad-Dindan Ray shahrida bo'lgan vaqtida tahsil olgan. Qutb ad-Din ar-Roziy Muborak Shohni yoshligidan tarbiyalab, voyaga yetkazgani, unga barcha ilmlardan saboq bergani, ayniqsa, mantiqda mohir alloma qilib voyaga yetkazgani rivoyat qilinadi. Hirotida ustozi Qutb ad-Din ar-Roziy dan ilmiy ta'lim olgach, Muborak Shoh Misrda qolib, ta'limini shu yerda davom ettiradi. Muhammad ibn

Muborak Shohning bugungi kungacha uchta muhim asari yetib kelgan. Al-Mufaddal ibn Umar al-Abhariy (vaf.1265) tomonidan yozilgan “Hidoyat ul-Hikma” asariga yozgan sharhi, falsafa va mantiq fanlariga oid Abul Hasan Ali ibn Muhammad al-Kotibiy al-Kavniyning (675-1276) “Hikmat ul-Ayn” nomli asariga yozgan sharhi. Uchinchi asari esa astronomiyaga oid Harakiyning “Hoshiya ut-Tabsira fi-l-Haya” nomli asariga yozilgan sharhidir[6]. Alloma Sayid Sharif Jurjoni ustoz Muborak Shoh bilan ilk tanishuv haqida manbalarda quyidagicha keladi: “Imom Muborak Shoh Misrdagi devonxonalarda yurib turishga o‘rganib qolgan edi. Shunday yurishlaridan birida, u bir xonaning yonidan o‘tar ekan, u yerda bir suhbatga guvoh bo‘ldi. Bir talaba “Sharh al-Matoli” asarini o‘ziga takrorlab o‘qiyotgan ekan, shunday g‘ayrioddiy uslubdagi, bu holat Imom Muborak Shohni hayratga soldi. Bu talaba yod olganlarini mustahkamlash uchun qo‘llagan usul, avval muallifning, so‘ngra o‘qituvchisining sharhini eslab qolishdan iborat bo‘lib, songra matnni o‘z sharhi va tanqidiy tahlili bilan yakunlardi. Talaba “Sharh al-Matoli” asarini o‘n olti marta to‘liq o‘qiganiga qaramay uni eslab qolish uchun takrorlar edi, ushbu talaba Sayid Sharif Jurjoni edi[2:4]. Imom Jurjoni Misrda Muborak Shohning huzuriga borgach, imom unga ikki shart qo‘ydi. Birinchisi avvalgi o‘qishini tiklashini va ikkinchisi, o‘qish jarayonida savol bermasligini. Keyinchalik ko‘p yillik o‘qish natijasida va ustozining shartlariga rozi bo‘lib, tirishqoqlik bilan o‘qiganligi evaziga Muborak Shoh unga savollar berishga ruhsat berdi. Natijada Jurjoni Muborak Shohning eng ko‘zga ko‘ringan shogirdlari qatoriga kirdi.

Sayid Sharif Jurjoni naqliy ilmlarini Akmaliddin Bobartiy hazratlaridan oladi. U zotning to‘liq ismi Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud ibn Ahmad al-Bobartiy ar-Rumiy al-Hanafiyy[3:9]. Imom Bobartiy ramazon oyining o‘n to‘qqizinchi sanasi juma kuni 710/1310 yilda Bobart (Turkiya)da tavallud topgan. “Ar-Rumiy” nisbasini Bobart qishlog‘i Rum diyoriga tegishli bo‘lgani uchun olgan. Imom Bobartiy ta’limni o‘z qishlog‘idagi olimlardan olgan. U aqida va fiqhni Muhammad ibn Muhammad al-Kokiydan o‘rganagan. So‘ng Halabga safar qilgan. Qozi Nasuriddin ibn al-Adim uni “Sa’diya” madrasasiga jo‘natadi va u o‘sha yerda ozgina muddat ta’lim olgan. Imom Bobartiy 740/1339 yilda Qohiraga ilm talabida safar qiladi, u yerda Abu Hayon al-Andalusiyan hamda Muhtasar ibn al-Hojib asarining shorihi Abu al-Sano Shamsuddin al-Isfahoniydan ham saboq olgan. Imom Suyuti “Bughyat al-wu‘at”da shunday deydi: “U fozil alloma, ko‘p fanlarga ega, aqilli va ulug‘ haybat egasi edi.”, Ibn Iyas esa “Bada’i az-zuhur” asarida shunday yozadi: “Hanafiyy fiqhining buyuk ulamosi, alloma, davrining yagona fidoiysi va zamonasining noyob zotidir”[3:12]. Imom Bobartiyning asarlaridan “Sharh al-Vasiya” mashhur asarlaridan hisoblanib, bu asarni Bobartiy Misr Mamluqlar hukmronligi davrida Qohira hokimi bo‘lgan amir Sayfuddavlag (802-1399) bag‘ishlagan. “Al-Irshod” asari Imom Abu Hanifaning “Fiqh al-Akbar” asariga yozilgan sharh hisoblanadi, “Al-kavashif al-burhaniya” bu

asar “Al-Mavaqif” asarining sharhi hisoblanadi. Alloma Misr podshohi bo‘lgan Zohir Berkuk(vaf.801/1398) nazdida yuksak mavqega ega bo‘lgan va “Shayhuniya” madrasasiga mudarris etib tayyinlangan. Unga Qohirada qozilik lavozimi berilgan bo‘lsa-da, Bobarti bu lavozimni qabul qilmadi va butun umrini ilm-fanga bag‘ishlab, yuzlab allomalar yetishib chiqishiga xizmat qildi. Imom Bobartiy 786/1384 yilda 70 yoshida Misrda vafot etgan va Shayhubiyaga dafn qilingan. Manbalarda uning dafn marosimida hatto Misr podshohi ham qatnashgani keltiriladi[7:38]

Sayid Sharif Jurjoniyy Misrda ilm olishni tugallaganidan so‘ng o‘sha zamonda usmoniylar davlatining markazi bo‘lmish Bursa orqali o‘z ona vataniga qaytadi[1:54]. Vataniga qaytgach 779 hijriy yilda Shirozning podshohi Jaloliddin Shoh Shujo Imom Jurjoniyni “Dorush shifo” madrasasiga mudarris qilib tayinlaydi. Imom bu dargohda o‘n yil davomida dars berdi va fatvo bilan shug‘ullandi[4:15].

VIII/XIVning ikkinchi yarmida turli siyosiy vaziyatlardan so‘ng, Shirozni zabt etgan Amir Temur (vaf.807/1405) hazratlari Sayyid Sharif Jurjoniyni o‘zi bilan Samarqandga olib ketdi[1:54]. Samarqandda mashhur naqshbandiya tariqati asoschisi hisoblangan buyuk shayx Bahouddin Naqshbandiyning mashhur vorislaridan biri Xoja Alouddin Muhammad al-Buhoriy al-Attor (vaf.802/1399) bilan tanishib undan tasavvufni chuqur o‘rganib birga safarlar qildilar[1:55]. Sayyid Sharif Jurjoniyning tariqatining ustozlari Alouddin Attor asli xorazmlik bo‘lib, naqshbandiya tariqati asoschisi Xoja Bahouddin Naqshbandiyning (vaf.791/1389) xalifasi hamda kuyovi Attor naqshband sulukiga kirgan, bir umr piri yonida bo‘lgan. Shayx Attor o‘zining ilmi, odobi, axloqi bilan ustozlari duosiga sazovor bo‘lgan. U zotning asl ismi Muhammad ibn Muhammad Buxoriydir, “Buxoriy” nisbasi uning Buxoroda tug‘ilganligini ko‘rsatadi. U doimiy ravishda atir surtib yurgani, yo‘ki ma’ruzasida qatnashganlar o‘sha nutqdan ruhiy hid olgani uchun “Attor” taxallusi bilan mashhur bo‘lgan[7:39].U zot boshqa ilm toliblaridan o‘zlarining ma’rifatlari, og‘ir-bosiqliklari bilan, shuningdek, ilmga bo‘lgan rag‘batlari ila ajralib turganlar. “Maqomati Shohi Naqshband” da yozilishicha, hazrat Bahouddin hazrat Alouddinni suluk boshida doimo o‘zlariga yaqin joyda o‘tirishlarini buyurardilar. Muridlar buning sababini so‘raganlarida, hazrat dedilar: “ Uni bo‘ri yeb qo‘ymasin deb, shunday qilaman. Zero bo‘ri, ya’ni nafs doimo poylab turadi, shuning uchun ham undan habardor bo‘lib turaman, toki bo‘riga yem bo‘lmasin”[8]. Alouddin Attor 20 rajab (802/1399-yil 20-mart) chorshanba kuni kechasi xufton namozidan so‘ng qattiq bosh og‘rig‘i va bel og‘rig‘idan so‘ng olamdan o‘tadi va Nev-Chagoniyyon degan qishloqqa dafn qilinadi [7:39]

Sayyid Sharif Jurjoniyy Samarqandda naqshbandiya tariqatining yana bir ulkan namoyondasi Alouddin Attorning shogirdi Mavlono Nizomiddin Homush (vaf. 853/1449) bilan do‘st bo‘lib u kishining tasavvuf majlislarida faol ishtirok etadi[1:55]. Manbalarda aytilishicha, Sayyid Sharif Jurjoniyy Xoja Alouddin Attor bilan bir qancha

vaqt o'tkazgandan so'ng, Alouddin Attordan hamroh so'radi va: "Menga bir do'stingiz bilan suhbatlashishni buyuringki, toki men sizning davrangizda bo'lish huquqini qo'lga kiritib, bu darajali kishilar bilan aloqa o'rnatayin", dedi. Alouddin Attor uni katta shogirdlaridan biri Nizomuddin Homush (vaf. 853/1449) huzuriga yuboradi[7:26].

Xulosa qilib aytganda, alloma Sayid Sharif Jurjoniyni ilmiy shakllanishi va kamol topishida ustozlarning tutgan beqiyos o'rni kattadir. Ayniqsa, o'rta asr islom ilm-fani tarixida alohida o'rin tutgan Qutb ad-Din ar-Roziy, Muborak Shoh va Akmaliddin al-Bobartiy kabi yetuk mutafakkirlar bilan bo'lgan ilmiy aloqalari orqali Jurjoniyni keng qamrovli bilim olgani ishonchli manbalarda ham bayon qilingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Samarqandning sara ulamolari. - T.: Hilol-Nashr , 2019. - 112 b.
2. Sayyid al-Sharif Ali b. Muhammad Jurjani. Nahw Mir. Turkiye: Mega Printing , 2018. - 137 b.
3. Akmaluddin Bobartiy. Sharh vasiyya Imam Abu Hanifa. – Ummon: Dorul fath, 2009. – 155 b.
4. Sayid Sharif Jurjoni. Ta'rifot al-ulum va tahqiqot ar-rusum. - Bayrut: Dorul kutubil ilmiyya, 2019. - 536 b.
5. Recep Uslu. Who is the author of Sharh al-Adwar? Sayyid Jurjani or Ibn Mubarakshah. URL: <https://dergipark.org.tr/en/download/article-file/3703747>. [Murojat sanasi: 03.07.2025]
6. Mustafoev Doston. Sayid Sharif Jurjoni va uning ilmiy merosi. <https://www.maturidijournal.uz/articles/view/91> . [Murojat sanasi: 04.07.2025]
7. Ömer Faruk Çalimli. Seyyid Şerîf Cürcânî'nin Hayatı, Eserleri, Tarîkatı ve Tasavvufî Görüşleri. Türkiye: Yüksek lisans , 2018. - 126 v.
8. Баҳоуддин Нақшбанд. (Манбалар таҳлили). – Т.: “Sanostadart”, 2019.
9. <https://oyina.uz/uz/generation/156>
10. <https://oliymahad.uz/42553>